



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQUV HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожионов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмуродовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODEL ASOSIDA HISOBGA OLIH METODIKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLIH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	



UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLISH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida uzoq muddatli aktivlar qadrsizlanishidan ko'rilgan zararlarni tan olish, ularni pul hosil qiluvchi birlik aktivlari o'rtasida taqsimlash va keyingi davrlarda qayta tiklash operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirishning uslubiy masalalari tadqiq etilgan. Milliy schyotlar rejasida qadrsizlanish operatsiyalarini aks ettirishga mo'ljallangan maxsus schyotlarning yetarlicha shakllantirilmaganligi MHXS 36 talablarini amaliyotga samarali joriy etishni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiruvchi omillardan biri sifatida baholanadi. Tadqiqot doirasida schyotlar rejasiga kontraktiv xarakterdagi sintetik schyotlar va subschyotlar kiritish, qadrsizlanish zararini birlik aktivlari o'rtasida taqsimlash hamda qayta tiklash operatsiyalarini hisobda aks ettirish tartibi ishlab chiqilgan. Shuningdek, hisob siyosatida qadrsizlanishga oid majburiy elementlarni (test davriyligi, asosiy farazlar, baholash yondashuvlari) belgilash yuzasidan takliflar asoslangan. Taklif etilgan hisob ta'minotining joriy etilishi moliyaviy hisobotda aktivlarning iqtisodiy jihatdan asoslangan qiymatini shaffof aks ettirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: uzoq muddatli aktivlar, qadrsizlanish zarari, kontraktiv schyot, subschyot, schyotlar rejas, pul hosil qiluvchi birlik, zararni taqsimlash, qadrsizlanishni qayta tiklash, hisob siyosati, MHXS 36.

Abstract. The article examines methodological issues related to the recognition of impairment losses on long-term assets, their allocation among the assets of cash-generating units, and the accounting treatment of impairment reversal operations in joint-stock companies. The study substantiates that the insufficient development of specialized accounts for recording impairment operations within the national chart of accounts is one of the factors requiring further improvement in the effective implementation of IFRS 36 requirements. The research develops an accounting framework involving the introduction of synthetic contra-accounts and sub-accounts, the allocation of impairment losses among individual assets, and the recognition of impairment reversal operations. Furthermore, proposals are developed for defining mandatory impairment-related elements in accounting policies, including testing frequency, key assumptions, and valuation approaches. The implementation of the proposed accounting framework is shown to contribute to a more transparent presentation of the economically justified value of assets in financial reporting.

Keywords: long-term assets, impairment loss, contra-account, sub-account, chart of accounts, cash-generating unit, impairment loss allocation, impairment reversal, accounting policy, IFRS 36.

Аннотация. В статье исследованы методические вопросы признания убытков от обесценения долгосрочных активов в акционерных обществах, их распределения между активами единиц, генерирующих денежные средства, а также отражения операций по восстановлению обесценения в последующих периодах в бухгалтерском учёте. Обосновано, что недостаточная сформированность специальных счетов для отражения операций по обесценению в национальном плане счетов является одним из факторов, обуславливающих необходимость совершенствования эффективного применения требований МСФО (IAS) 36. В рамках исследования разработан порядок введения синтетических контрактивных счетов и субсчетов в план счетов, распределения убытков от обесценения между отдельными активами и отражения операций по восстановлению обесценения в бухгалтерском учёте. Кроме того, сформулированы предложения по определению обязательных элементов учётной политики, связанных с обесценением, включая периодичность тестирования, ключевые допущения и подходы к оценке. Доказано, что внедрение предложенной системы учётного обеспечения способствует более прозрачному отражению экономически обоснованной стоимости активов в финансовой отчётности.

Ключевые слова: долгосрочные активы, убыток от обесценения, контрактивный счёт, субсчёт, план счетов, единица, генерирующая денежные средства, распределение убытка, восстановление обесценения, учётная политика, МСФО (IAS) 36.



KIRISH

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish jarayonida milliy buxgalteriya hisobi tizimining infratuzilmasi — schyotlar rejasi, birlamchi hujjatlar va hisob registrlari — yangi talablar bilan muvofiqlashtirilishi obyektiv zaruriyatga aylanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qaroriga muvofiq aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va boshqa yirik subyektlar moliyaviy hisobotni MHXS asosida tuzmoqda [1]. MHXS 36 «Aktivlarning qadrsizlanishi» standarti talablariga ko'ra, aktivning balans qiymati uning qoplanadigan qiymatidan oshib ketgan taqdirda farq qadrsizlanish zarari sifatida darhol tan olinishi, keyingi davrlarda qadrsizlanish sabablari bartaraf etilsa esa (gudvill bundan mustasno) zarar qayta tiklanishi lozim.

Biroq ushbu talablarni amaliyotga joriy etishda milliy hisob tizimida ayrim uslubiy va tashkiliy jihatlarni takomillashtirish zarurati mavjud: amaldagi schyotlar rejasida qadrsizlanish operatsiyalarini aks ettirishga mo'ljallangan maxsus schyotlar yetarli darajada shakllantirilmagan. Natijada amaliyotda qadrsizlanish zararlarini hisobga olish bo'yicha turli yondashuvlardan foydalaniladi, yo eskirish (amortizatsiya) schyotlarida bilvosita aks ettiriladi, yo balans qiymatini bevosita kamaytirish yo'li bilan rasmiylashtiriladi. Har uchala holat ham hisob axborotining to'liqligi va taqqoslanuvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin: eskirish va qadrsizlanish iqtisodiy mazmunan turli jarayonlar bo'lib, birinchisi aktiv qiymatining foydali xizmat davriga rejali taqsimlanishini, ikkinchisi esa aktiv iqtisodiy salohiyatining kutilmagan pasayishini ifodalaydi.

Bundan tashqari, qadrsizlanish hisobining murakkab unsurlari — zararni pul hosil qiluvchi birlik aktivlari o'rtasida taqsimlash va keyingi davrlarda qayta tiklash — milliy uslubiy hujjatlarda umuman tartibga solinmagan. Mazkur maqolaning maqsadi — qadrsizlanishdan ko'rilgan zararlarini tan olish, taqsimlash va qayta tiklash operatsiyalarini schyotlar rejasiga kontraktiv schyot va subschyotlar kiritish orqali hisobda aks ettirish tartibini ishlab chiqish hamda hisob siyosatida qadrsizlanishga oid majburiy elementlarni belgilash yuzasidan takliflarni asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qadrsizlanish zararlarini tan olish va aks ettirish amaliyoti xorijiy tadqiqotlarda atroflicha o'rganilgan. J. A. Elliott va W. H. Shaw aktivlarni hisobdan chiqarish qarorlarining moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga va bozor ishtirokchilarining qabul qilishiga ta'sirini tadqiq etgan (Elliott and Shaw, 1988). J. Francis, J. D. Hanna va L. Vincent qadrsizlanish zararlarining bir qismi obyektiv iqtisodiy omillar, bir qismi esa rahbariyat professional mulohazalari bilan ham bog'liqligini empirik asoslagan (Francis, Hanna and Vincent, 1996). E. J. Riedl qadrsizlanishni tan olish sifati hisob tartibining qat'iyligiga bog'liqligini ko'rsatgan (Riedl, 2004). N. M. AbuGhazaleh, O. M. Al-Hares va C. Roberts qadrsizlanish summalarini aniqlashda rahbariyat mulohazasining roli yuqori ekanligini, shu sababli hisob va ochib berish tartib-qoidalari aniq belgilanishi lozimligini asoslagan (AbuGhazaleh, Al-Hares and Roberts, 2011). H. Amiraslani, G. E. Iatridis va P. F. Pope esa MHXS 36 ni qo'llash sifati institutsional muhitga, jumladan, hisob infratuzilmasining rivojlanganligiga bog'liqligini ko'rsatgan (Amiraslani, Iatridis and Pope, 2013).

Respublikamiz olimlaridan O. Bobojonov, A. A. Karimov, A. K. Ibragimov, B. A. Xasanov, K. B. O'razov, S. S. Tashnazarov va boshqalarning ishlarida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi, schyotlar rejasini takomillashtirish hamda milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari tadqiq etilgan (Karimov, Islomov va Avloqulov, 2022; Ibragimov va boshq., 2021; Tashnazarov, 2019). Biroq aynan qadrsizlanish operatsiyalarini — zararni tan olish, birlik aktivlari o'rtasida taqsimlash va qayta tiklashni — schyotlar rejasi darajasida tizimli aks ettirish hamda hisob siyosatining qadrsizlanishga oid elementlarini belgilash masalalari mahalliy adabiyotda yaxlit uslubiy yechim sifatida ishlab chiqilmagan. Ushbu bo'shliq mazkur tadqiqotning yo'nalishini belgilab berdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini MHXS 36 «Aktivlarning qadrsizlanishi», 21-son BHMS bilan tasdiqlangan schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma, buxgalteriya hisobiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda mavzuga oid xorijiy va mahalliy ilmiy ishlar tashkil etadi [3]. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyoslash, guruhlash, modellashtirish, schyotlar korrespondensiyasi usuli hamda shartli hisob-kitoblardan foydalanildi. Empirik baza sifatida telekommunikatsiya, pochta xizmatlari, axborot texnologiyalari va sug'urta sohalarida faoliyat yurituvchi aksiyadorlik jamiyatlarining hisob amaliyoti o'rganildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

MHXS 36 ga muvofiq qadrsizlanish zarari aktivning balans qiymati bilan qoplanadigan qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi va darhol foyda yoki zarar tarkibida tan olinadi (qayta baholash modelida hisobga olinadigan aktivlar bundan mustasno) [5]. Mazkur talabni milliy hisob amaliyotida izchil bajarish uchun, eng avvalo, qadrsizlanishni aks ettiruvchi maxsus schyotlar tizimi zarur. Tadqiqot doirasida schyotlar rejasiga kontraktiv xarakterdagi sintetik schyotlar va ularga mos subschyotlar hamda davr xarajatlari va daromadlari schyotlarini kiritish taklif etildi (1-jadval).

1-jadval

Qadrsizlanish operatsiyalarini aks ettirish uchun taklif etilayotgan schyotlar tizimi¹

Schyot (subschyot)	Nomi	Xarakteri va vazifasi
0300	Asosiy vositalar qadrsizlanishini hisobga oluvchi schyotlar	Kontraktiv schyot; asosiy vositalar bo'yicha to'plangan qadrsizlanish zararlarini aks ettiradi va balansda 0100-schyotlar qiymatini kamaytiradi
0310—0390	Asosiy vositalar turlari bo'yicha subschyotlar (binolar, inshootlar, mashina va uskunalar va h.k.)	0100-schyotlar tuzilmasiga muvofiq qadrsizlanishni aktiv turlari kesimida yuritish imkonini beradi
0600	Nomoddiy aktivlar qadrsizlanishini hisobga oluvchi schyotlar	Kontraktiv schyot; nomoddiy aktivlar bo'yicha to'plangan qadrsizlanish zararlarini aks ettiradi va balansda 0400-schyotlar qiymatini kamaytiradi
9440	Asosiy vositalar qadrsizlanishidan ko'rilgan zararlar	Davr xarajatlari schyoti; hisobot davrida tan olingan qadrsizlanish zararini moliyaviy natijalar hisobotiga olib boradi
9450	Nomoddiy aktivlar qadrsizlanishidan ko'rilgan zararlar	Davr xarajatlari schyoti; nomoddiy aktivlar bo'yicha tan olingan zararni aks ettiradi
9390	Bekor qilingan (qayta tiklangan) qadrsizlanishdan daromadlar	Boshqa operatsion daromadlar schyoti; keyingi davrlarda qayta tiklangan qadrsizlanish summalarini aks ettiradi

Kontraktiv schyotlar mexanizmining afzalligi shundaki, u aktivning dastlabki (qayta tiklash) qiymati, to'plangan eskirish va to'plangan qadrsizlanish to'g'risidagi axborotni alohida-alohida saqlaydi. Balansda aktiv sof qiymatda (dastlabki qiymat minus eskirish minus qadrsizlanish) taqdim etiladi, biroq analitik hisobda har bir komponent mustaqil kuzatiladi. Bu, birinchidan, qadrsizlanishni keyinchalik qayta tiklash imkonini saqlaydi (bevosita qiymatni kamaytirish usulida bu imkon yo'qoladi), ikkinchidan, moliyaviy hisobot izohlarida MHXS 36 talab qiladigan ma'lumotlarni (davr boshi va oxiridagi to'plangan qadrsizlanish, davrda tan olingan va qayta tiklangan summalar) shakllantirish uchun tayyor axborot bazasini yaratadi.

Taklif etilayotgan yondashuv xalqaro hisob amaliyotidagi tendensiyalarga ham muvofiq keladi. Rivojlangan hisob tizimlarida qadrsizlanish, qoida tariqasida, alohida tartibga solinadigan baholash rezervlari (allowance) mexanizmi orqali, ya'ni aktiv qiymatini bevosita o'zgartirmasdan, maxsus tuzatuvchi schyotlar vositasida aks ettiriladi. Bunday yechim hisob axborotining qayta tiklanuvchanligini (auditorlik izini) ta'minlaydi: har qanday vaqtda aktivning dastlabki qiymatini, jami eskirishini va jami qadrsizlanishini mustaqil ravishda aniqlash mumkin bo'ladi. Milliy schyotlar rejasiga kontraktiv schyotlar mexanizmini allaqachon biladi (masalan, eskirish schyotlari), shu sababli taklif etilayotgan 0300 va 0600-schyotlar tizimga uzviy kirishadi va buxgalterlardan qo'shimcha murakkab ko'nikmalarni talab qilmaydi.

Taklif etilgan schyotlar asosida qadrsizlanish operatsiyalarining buxgalteriya yozuvlari tizimi ishlab chiqildi (2-jadval). Yozuvlar uchta asosiy operatsiya guruhini qamrab oladi: zararni tan olish, zararni qayta tiklash hamda qadrsizlangan aktivni hisobdan chiqarishda to'plangan qadrsizlanishni yopish.

¹ Manba: muallif ishlanmasi.



2-jadval
Qadrsizlanish operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya yozuvlari²

Operatsiya mazmuni	Debet	Kredit
Asosiy vositalar bo'yicha qadrsizlanish zarari tan olindi	9440	0300
Nomoddiy aktivlar bo'yicha qadrsizlanish zarari tan olindi	9450	0600
Keyingi davrda asosiy vositalar qadrsizlanishi qayta tiklandi (balans qiymati eskirish hisobga olingan tarixiy qiymatdan oshmagan holda)	0300	9390
Keyingi davrda nomoddiy aktivlar qadrsizlanishi qayta tiklandi	0600	9390
Qadrsizlangan asosiy vosita hisobdan chiqarilganda to'plangan qadrsizlanish yopildi	0300	0100 (tegishli subschyot)
Qadrsizlangan nomoddiy aktiv hisobdan chiqarilganda to'plangan qadrsizlanish yopildi	0600	0400 (tegishli subschyot)

Qadrsizlanish hisobining eng murakkab unsurlaridan biri — zararni pul hosil qiluvchi birlik aktivlari o'rtasida taqsimlashdir. MHXS 36 ga muvofiq, birlik bo'yicha aniqlangan zarar avval birlikka tegishli gudvillning balans qiymatini kamaytirishga yo'naltiriladi, qolgan summa esa birlikning boshqa aktivlari o'rtasida ularning balans qiymatlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Bunda har bir aktivning balans qiymati uning alohida aniqlanishi mumkin bo'lgan qoplanadigan qiymatidan (agar aniqlash mumkin bo'lsa) va noldan past bo'lmasligi lozim. Taqsimlash tartibining amaliy qo'llanilishi shartli misolda ko'rsatildi (3-jadval): birlik tarkibida gudvill (2,0 mlrd so'm), bino (12,0 mlrd so'm) va uskunalar (16,0 mlrd so'm) mavjud bo'lib, birlikning qoplanadigan qiymati 24,0 mlrd so'm etib aniqlangan; demak, umumiy zarar 6,0 mlrd so'mni tashkil etadi.

3-jadval
Qadrsizlanish zararini birlik aktivlari o'rtasida taqsimlash (shartli misol, mlrd so'm)³

Aktiv	Balans qiymati	Zararning gudvillga yo'naltirilishi	Qolgan zararining mutanosib taqsimoti	Taqsimlangan jami zarar	Taqsimlashdan keyingi balans qiymati
Gudvill	2,0	2,0	—	2,0	0,0
Bino	12,0	—	1,71 (12,0/28,0 × 4,0)	1,71	10,29
Uskunalar	16,0	—	2,29 (16,0/28,0 × 4,0)	2,29	13,71
Jami	30,0	2,0	4,0	6,0	24,0

Keltirilgan misolda zararining 2,0 mlrd so'mi avval gudvillni to'liq hisobdan chiqaradi, qolgan 4,0 mlrd so'm esa bino va uskunalar o'rtasida balans qiymatlariga mutanosib ravishda (12:16 nisbatda) taqsimlanadi. Buxgalteriya hisobida bino bo'yicha 1,71 mlrd so'm va uskunalar bo'yicha 2,29 mlrd so'm summalarida 9440-schyot debeti va 0300-schyotning tegishli subschyotlari krediti bo'yicha yozuvlar beriladi. Subschyotlar kesimidagi bunday yuritish keyingi davrlarda qayta tiklashni ham aktivlar kesimida aniq amalga oshirish imkonini beradi: MHXS 36 ga ko'ra, qayta tiklangan balans qiymati aktiv qadrsizlanmagan taqdirda shakllanadigan qiymatdan (eskirish hisobga olingan holda) oshmasligi kerak, gudvill bo'yicha qadrsizlanish esa umuman qayta tiklanmaydi.

Schyotlar tizimi va yozuvlar tartibi o'z-o'zidan yetarli emas: ularning izchil qo'llanilishi hisob siyosatida qadrsizlanishga oid majburiy elementlarning belgilanishini taqozo etadi. Tadqiqot doirasida hisob siyosatining qadrsizlanish bo'limiga kiritilishi lozim bo'lgan elementlar tarkibi asoslandi (4-jadval).

² Manba: muallif ishlanmasi.

³ Manba: shartli ma'lumotlar asosida muallif hisob-kitobi.



Element	Mazmuni
Qadrsizlanish testini o'tkazish davriyligi	Oddiy aktivlar uchun — qadrsizlanish belgilari aniqlanganda; gudvill va foydali xizmat muddati aniqlanmagan nomoddiy aktivlar uchun — har yili, belgilangan sanada
Asosiy farazlar	Pul oqimlari prognozi davri, prognozdan keyingi o'sish sur'ati, diskont stavkasini hisoblash tartibi va uning komponentlari
Baholash yondashuvlari	Sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymat yoki foydalanish qiymatini tanlash mezonlari; baholovchilarni jalb etish holatlari
Pul hosil qiluvchi birliklar	Birliklarni ajratish mezonlari va tasdiqlangan birliklar ro'yxati; gudvillni birliklarga birlashtirish tartibi
Zararni taqsimlash va qayta tiklash tartibi	Zararni birlik aktivlari o'rtasida taqsimlash ketma-ketligi; qayta tiklash shartlari va cheklovlar; mas'ul shaxslar
Hujjatlashtirish	Qadrsizlanish testi natijalarini rasmiylashtiruvchi hujjatlar shakllari va saqlash tartibi

Hisob siyosatida mazkur elementlarning belgilanishi bir nechta muhim vazifani bajaradi. Birinchidan, u qadrsizlanish hisobining davrlararo izchilligini ta'minlaydi: farazlar va yondashuvlar har bir hisobot davrida o'zgartirilavermaydi, ularning o'zgarishi esa asoslanishi va ochib berilishi lozim bo'ladi. Ikkinchidan, u korporativ boshqaruv nuqtai nazaridan rahbariyat qarorlarini oldindan belgilangan uslubiy mezonlar asosida shakllantirish imkonini beradi: test o'tkazish-o'tkazmaslik, stavkani tanlash va zararni taqsimlash qarorlari oldindan belgilangan qoidalarga bo'ysunadi. Uchinchidan, u auditorlik tekshiruv uchun aniq mezonlar yaratadi: auditor jamiyat amaliyotini uning o'z hisob siyosatiga muvofiqligi nuqtai nazaridan baholash imkoniga ega bo'ladi.

Schyotlar tizimining to'laqonli amal qilishi birlamchi hisob hujjatlari bilan ham ta'minlanishi lozim. Qadrsizlanish zararini tan olish, taqsimlash va qayta tiklash operatsiyalari asosiy vositalar harakatini rasmiylashtiruvchi namunaviy shakllarda (AV-1, AV-4, AV-4a, AV-6, AV-11, AV-12) o'z aksini topishi uchun ushbu shakllarga «qadrsizlanishdan ko'rilgan zararlar summasi» va «qadrsizlanishni hisobga oluvchi schyotlar» satrlarini kiritish maqsadga muvofiq. Bu, bir tomondan, har bir buxgalteriya yozuvini hujjatli asos bilan ta'minlaydi, ikkinchi tomondan, aktiv hisobdan chiqarilganda yoki boshqa shaxsga o'tkazilganda uning to'plangan qadrsizlanishi to'g'risidagi axborotning hujjatda aks etishini kafolatlaydi.

Qadrsizlanish hisobining yana bir amaliy jihati — uning soliq oqibatlari bilan bog'liqligidir. Soliq qonunchiligida qadrsizlanish zararlari, qoida tariqasida, soliq solinadigan bazani kamaytiruvchi xarajat sifatida e'tirof etilmaydi, soliq maqsadlarida aktiv qiymati esa o'z tartibida yuritiladi. Natijada aktivning buxgalteriya balansidagi qiymati bilan soliq bazasi o'rtasida vaqtinchalik farq yuzaga keladi va u MHXS 12 «Foyda solig'i» talablariga muvofiq kechiktirilgan soliq aktivini tan olishga olib kelishi mumkin [4]. Shu sababli hisob siyosatida qadrsizlanish bo'limi kechiktirilgan soliqlarni hisoblash tartibi bilan o'zaro bog'lanishi, 9440 va 9450-schyotlardagi summalar esa soliq hisobi registrlarida alohida kuzatilishi lozim. Bu jihatning e'tibordan chetda qolishi moliyaviy natija va soliq majburiyatlarining noto'g'ri hisoblanishiga olib keladi.

Taklif etilgan hisob ta'minoti moliyaviy hisobotni taqdim etish bilan ham uzviy bog'liq. Buxgalteriya balansida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar sof qiymatda — to'plangan eskirish va to'plangan qadrsizlanish chegirilgan holda — aks ettiriladi; moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda 9440 va 9450-schyotlarda to'plangan zararlar davr xarajatlari tarkibida, 9390-schyotdagi qayta tiklash summalar esa boshqa daromadlar tarkibida ko'rsatiladi. Izohlarda esa aktivlar guruhlar kesimida davr boshi va oxiridagi to'plangan qadrsizlanish, davrda tan olingan va qayta tiklangan summalar, ularni keltirib chiqargan voqealar hamda qoplanadigan qiymatni aniqlashda foydalanilgan farazlar ochib beriladi. Shu tariqa kontraktiv schyotlar tizimi hisob ma'lumotlaridan hisobot ko'rsatkichlarigacha bo'lgan yaxlit axborot zanjirini shakllantiradi.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan schyotlar tizimi va birlamchi hujjatlarning takomillashtirilgan shakllarini «O'zbekiston shampani» AJ amaliyotida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinib, uning amaliy ahamiyati asoslandi: qadrsizlanish operatsiyalari alohida schyotlarda aks ettirilishi natijasida moliyaviy hisobotda aktivlarning real qiymati to'g'risida aniq va shaffof ma'lumotlar shakllandi. Bu esa taklif etilayotgan hisob ta'minotining amaliy hayotiylikni tasdiqlaydi va uni boshqa aksiyadorlik jamiyatlari amaliyotiga kengaytirish uchun asos bo'ladi.

4 Manba: muallif ishlanmasi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari bo'yicha quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

Milliy schyotlar rejasida qadrsizlanish operatsiyalarini aks ettiruvchi maxsus schyotlarning mavjud emasligi MHXS 36 talablarini amaliyotga joriy etishning asosiy infratuzilmaviy to'sig'i hisoblanadi. Qadrsizlanishni eskirish schyotlarida yoki aktiv qiymatini bevosita kamaytirish yo'li bilan aks ettirish hisob axborotining ishonchliligi va taqqoslanuvchanligiga ta'sir qiladi va qayta tiklash imkoniyatini yo'qotadi.

Schyotlar rejasiga kontraktiv xarakterdagi 0300 va 0600-sintetik schyotlarni ularning subschyotlari bilan birga, davr xarajatlari tarkibida 9440 va 9450-schyotlarni hamda qayta tiklash daromadlari uchun 9390-schyotni kiritish taklif etiladi. Bunday tizim aktivning dastlabki qiymati, eskirishi va qadrsizlanishi to'g'risidagi axborotni alohida saqlash, balansda sof qiymatni taqdim etish va izoh talablarini bajarish imkonini beradi.

Qadrsizlanish zararini pul hosil qiluvchi birlik aktivlari o'rtasida taqsimlash MHXS 36 da belgilangan ketma-ketlikda — avval gudvillga, so'ngra boshqa aktivlarga balans qiymatlariga mutanosib ravishda — amalga oshirilishi va subschyotlar kesimida hujjatlashtirilishi lozim. Bu keyingi davrlarda qayta tiklashni aktivlar kesimida to'g'ri amalga oshirishning zaruriy shartidir.

Hisob siyosatida qadrsizlanishga oid majburiy elementlar — test davriyligi, asosiy farazlar, baholash yondashuvlari, birliklar ro'yxati, taqsimlash va qayta tiklash tartibi hamda hujjatlashtirish shakllari — belgilanishi shart. Bu hisobning davrlararo izchilligini ta'minlaydi, rahbariyat qarorlarini belgilangan uslubiy mezonlar asosida shakllantirish imkonini beradi va auditorlik tekshiruvi uchun aniq mezonlar yaratadi.

Taklif etilgan hisob ta'minotining aksiyadorlik jamiyatlari amaliyotiga joriy etilishi moliyaviy hisobotda aktivlarning real qiymatini shaffof aks ettirish, investorlar ishonchini mustahkamlash hamda milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish vazifalariga bevosita xizmat qiladi. Istiqbolda mazkur schyotlar tizimini schyotlar rejasiga rasman kiritish masalasini vakolatli organlar darajasida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2020. – 25-fevral. – URL: <https://lex.uz/docs/-4746047>
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O'RQ-404-son «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2016. <https://lex.uz/ru/docs/-2931253>
3. International Accounting Standard 36 (IAS 36) «Impairment of Assets». – London: IFRS Foundation, 2023.
4. International Accounting Standard 12 (IAS 12) «Income Taxes». – London: IFRS Foundation, 2023.
5. AbuGhazaleh N.M., Al-Hares O.M., Roberts C. Accounting discretion in goodwill impairments: UK evidence // Journal of International Financial Management & Accounting. – 2011. – Vol. 22, No. 3. – P. 165–204.
6. Amiraslani H., Iatridis G.E., Pope P.F. Accounting for asset impairment: a test for IFRS compliance across Europe. – London: Cass Business School, City University London, 2013.
7. Elliott J.A., Shaw W.H. Write-offs as accounting procedures to manage perceptions // Journal of Accounting Research. – 1988. – Vol. 26. – P. 91–119.
8. Francis J., Hanna J.D., Vincent L. Causes and effects of discretionary asset write-offs // Journal of Accounting Research. – 1996. – Vol. 34. – P. 117–134.
9. Riedl E.J. An examination of long-lived asset impairments // The Accounting Review. – 2004. – Vol. 79, No. 3. – P. 823–852.
10. Hitchner J.R. Financial Valuation: Applications and Models. – 4th ed. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2017.
11. Koller T., Goedhart M., Wessels D. Valuation: Measuring and Managing the Value of Companies. – 7th ed. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2020.
12. Karimov A.A., Islomov F.R., Avloqulov A.Z. Buxgalteriya hisobi. – Toshkent: Sharq, 2004. – 592 b.
13. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019. – 584 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>